

UMUMTA'LIM O'RSTA MAKTABLARIDA CHET TILINI O'RGANISHDA
O'QUVCHILARNING MOTIVASIYANI OSHIRISH YO'LLARI

Maxmatqulova Zarina Nurillayevna

Alfraganus universiteti.

Filologiya fakulteti Linglistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10873852>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, umumta'lim o'rta maktablarida ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarning motivasiyani oshirish yo'llari bayon etigan bo'lib, o'quvchilar ingliz tilini o'rganishga qiziqishi va qat'iyatlilikini oshirishga yordam beradigan samarali strategiyalarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan.

Tayanch so'z va iboralar: umumta'lim o'rta maktablari, chet tili, ingiz tili, o'qituvchi.o'quvchi, motivasiya, o'quv jarayonlari, muloqat, interfaol metod, pedagogik texnologiya.

WAYS TO INCREASE THE MOTIVATION OF STUDENTS IN LEARNING A
FOREIGN LANGUAGE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abstract. This article describes ways to increase students' motivation in English language learning in comprehensive secondary schools, and aims to identify and analyze effective strategies to increase students' interest and persistence in learning English.

Key words and phrases: general secondary schools, foreign language, English language, teacher, student, motivation, educational processes, communication, interactive method, pedagogical technology.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ИЗУЧЕНИИ
ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Аннотация. В статье описаны пути повышения мотивации учащихся при изучении английского языка в общеобразовательных средних школах, а также определены эффективные стратегии повышения интереса и настойчивости учащихся в изучении английского языка и направленные на анализ.

Ключевые слова и фразы: общеобразовательная школа, иностранный язык, английский язык, учитель, ученик, мотивация, образовательный процесс, общение, интерактивный метод, педагогическая технология.

Kirish. Chet tili (ingliz tili)ni o'rganish zamonaviy ta'luming ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarga gilabol muloqot va kasbiy rivojlanish uchun qimmatli vositalarni taqdim etadi. Bu jarayon, ayniqsa, o'quvchilar kelajakdagi o'quv va kasbiy yo'nalishini belgilovchi asosiy ko'nikma va bilimlari shakllanadigan umumta'lim o'rta maktabda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzabligi. Umumta'lim o'rta maktablarida chet tilini o'rganishda o'quvchilar motivasiyani oshirish muammosi dolzarbligi nafaqat hayotiy faoliyatdagi turli sohalarida chet tilida so'zlashuvchi muhitdagi ta'siri kuchayishi, balki zamonaviy dunyoda tilini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun til ko'nikmalarini chuqur egallash zarurati bilan ham ta'kidlanadi.

Shunday ekan, yanada kuchliroq o'qishimiz va maqsadlar sari dadil harakat qilishimiz o'zimizni baxtli his qilishimiz o'z qo'limizdadir. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'biri bilan

aytganda “Hozirgi kunda har tomonlama kamol topgan, yuksak salohiyatl, aql-zakovatli shaxsni shakllantirish uchun avvalo ularning ta'lif tizimiga e'tibor qaratishimiz lozim”. Bu gaplardan ko'riniib turibdiki Yurtboshimiz ham ta'lif tizimiga e'tibor qaratar ekan, avvalo buning uchun yoshlar ongiga yuksalish tushunchasini yanada kuchliroq singdirish uchun bunga turtki zarurdir.

Aynan salohiyatl yoshlarni shakllantirish va ulkan maqsadlar sari dastlabki qadam aynan motivasiya desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqt ni nazardan, ham ushbu mavzu bugungi kunda ham dolzabligicha qolmoqda.

Tadqiqot mavzusiga tegishli materillarni o'rganganlik darajasi. “Motivasiya” atamasini birinchi marta A. Shopengauer o'z maqolasida qo'llagan.

Maslou o'zining “Motivasiya va shaxsiyat” (1954) asarida insonning barcha ehtiyojlari tug'ma yoki instinktiv ekanligini va ular ustuvorlik yoki ustunlik ierarxik tizimida tashkil etilganligini quyidagi diagramma orqali taklif etadi.



1-rasm. Avraam Maslouning inson ehtiyojlari ierarxiyasi diagrammasi.

Oxirgi uchta daraja: “idrok”, “estetik” va “o'zini o'zi anglash” odatda “o'zini namoyon qilish zarurati” (shaxsiy o'sishga bo'lgan ehtiyoj) deb ataladi.

Rubinshteyn S.L. “Motivasiya-bu psixika orqali amalga oshuvchi determinasiyasidir”, deb ta'kidlagan bo'lsa, Madsen K.B. “Motivasiya bu xulqiga yo'naltirilgan qo'llab quvvatlovchi, qo'zg'atuvchi omillar yig'indisidir”, deb aytib o'tgan. Quyidagi ma'lumotlar rang barangligi motivasiyaga yanada chuqurroq yondashish imkoniyatini beradi.

Yoshi katta insonlar esa hozirgi kunda yoshlari o'rtasida o'zini omadsiz va baxtsiz his qilishlariga sabab bu aynan motivasiya etishmasligi deya ta'kidlashadi. Shu o'rinda Jaloliddin Rumiyning shu gapini eslatib o'tish o'rinli deb hisoblayman. "Hayotda omadsiz, baxtsiz va muofaqiyatsiz tushunchalarni o'zi yo'q. Shunchaki hayotda dangasa, loqayd va e'tiborsiz degan so'zlar bor holos".

Motivasiya mohiyati bo'yicha bildirilgan yuqoridagi fikr-mulohazalar unga berilgan umumlashgan fazilatlarga mutloqo mutanosibdir. Shu bilan birga motivasiyaga quyidagicha izoh berishimiz mumkin.

Motivasiya -(lotincha movere "harakat qilish" dan) harakatga undash; inson xulq-atvorini boshqaradigan uning yo'naliшини, tashkiliyigini, faolligini va barqarorligini belgilovchi psixofiziologik jarayon; insondagi o'z ehtiyojlarini faol ravishda qondirish qobiliyatidir.

Tadqiqot maqsadi. Umumta'lim o'rtalarda maktablaridagi o'quvchilar chet tilini o'rganishdagi motivasiyasini oshirish usullarini o'rganish, bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan asosiy qiyinchilik va muammolarni aniqlash.

Tadqiqot maqsadida kelib chiqib quyidagi **vazifalarni** xal etiladi:

- umumta'lim o'rtalarda maktablarida chet tilini o'qitishda motivasiya muammosi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarni ko'rib chiqish;
- umumta'lim o'rtalarda maktab o'quvchilari motivation xususiyatlarini tahlil qilish, ularning qiziqishi va ta'lim muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- umumta'lim o'rtalarda maktab o'quvchilari ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan aniq strategiya va usullarni taqdim etish va asoslash.

Ilmiy yangiligi. Umumta'lim o'rtalarda maktablaridagi o'quvchilari chet tilini o'rganishga qiziqishi va ularning motivasiyasini oshirish uchun innovation strategiyalar va pedagogik usullar, jumladan pedagogik texnologiya, interfaol yondashuvlar va o'yinlarni qo'llash ko'rsatilgan. Bu maktab o'quvchilari ishtiyoqini oshirish uchun noan'anaviy texnologiyalar, metodlar, uslublar va o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda chet tilini o'qitishni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, boshlang'ich chet tili o'qituvchilari amaliy faoliyatida materiallaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot materillari mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy tadqiqot ishlari va o'quv adabiyotlari tahlil qilingan bo'lib, tahlilar asosida tayyorlangan materiallar, o'qituvchilar o'quvchilarni o'qitishda gilabal muloqot va malaka oshirish uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qismi. Satistik ma'lumotlarga ko'ra, halqaro hamjamiyatdagi aholining 70 foizi ingliz tilida muloqat qilishar ekan, bu degan jaxondagi 7/1 qismi odamlar ingliz tilida muloqat qilishadi degani. Bizning mamalakatimizda ham ingliz tiliga bo'lgan e'tibor kundan-kunga oshib bormoqda, barcha umumta'lim, o'rtalarda maxsus va oliy ta'lim muassasalaridagi barcha yo'nalihslardan ingliz tili majburan o'qitilmoqda. Bundan tashqari barcha shaxar va tumanlarda o'quv markazlari faoliyat olib bormoqda. Chet tilidan Milliy va halqaro sertifikat ega bo'lgan o'qituvchilar oylik maoshiga 50 foizgacha ustama tulanmoqda. Lekin tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy ta'limda o'quvchilar chet tilini o'rganishga bo'lgan motivasiyasi yuqori darajada deb bo'lmaydi.

Buning sababi shundaki, chet tilini o'rganish ko'pincha katta kuch va intizomni talab qiladigan murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan faoliyat turi sifatida izohlanadi.

Chet tilini o‘rganish kontekstida motivasiya - bu o‘quv faoliyatini boshqaradigan samarali tizimi. O‘quvchilar o‘qituvchi topshirig‘ini muvaffaqiyatli bajarganlarida uni rag‘batlantirsa, bu uni yanada muvaffaqiyatli bajarishga motivasiya beradi.

O‘quvchidagi chet tilini o‘rganishdagi motivasiyasini shakllantirish o‘qituvchilardan malakali yondashuvni va o‘quvchilar motivasiyasidagi turli tomonlarini hisobga oladigan turli xil usullardan foydalanishni talab qiladi.

Muloqot jarayonida ijobjiy va hissiy jihatdan qulay muhitni tanlash juda muhim, chunki u ijodiy birgalikdagi faoliyatni va boshqa odamlarga nisbatan alohida ijtimoiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi, hurmat va minnatdorchilik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Qulay muloqot jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi umumiy hissiy va psixologik makonni yaratadilar, unda o‘quvchini tashqi dunyo bilan madaniy va kognitiv o‘zaro munosabatlarga jalb qilishga qaratilgan ijodiy jarayon rivojlanadi.

Asosiy vazifalardan bir o‘qituvchi ham o‘quvchi ham o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun motivasiyasini shakllantirishni ta‘kidlash lozim.O‘quvchi o‘quv jarayonlarida yangi bilimlardan zavqlana olsa, bu o‘quv faoliyatiga mos keladigan usul va jarayonlar mavjudligidan dalolat beradi.

Zamonaviy darsliklariga kiritilgan chet tilini o‘rganishda katta yoshdag‘i mактаб o‘quvchilari motivasiyasini oshirishga yordam beradigan bir qator samarali usullar mavjud. Jumladan,

- talabalar uchun haqiqiy muammolarni keltirib chiqaradigan va faol nutq amaliyotini (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) talab qiladigan topshiriqlardan foydalanish; bu bilan chet tilini o‘rganishga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.
- konstruktiv va amaliy (kundalik yuritish yoki topshiriqlar yaratish);
- o‘yin (rol o‘ynash loyihalari va dramatizasiya);
- axborot-tadqiqot loyihalarini o‘z ichiga olgan turli xil usul va vositalardan foydalanish [2].

Bu usullar faol va qiziqarli tashkil etilishi tilni o‘rganishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida katta yoshdag‘i mактаб o‘quvchilarida chet tilini o‘rganishda motivasiyani rivojlantirishga olib keladi.

Ingliz tilini o‘rganish uchun kognitiv motivasiyani shakllantirish muhim rol o‘ynaydi.

Kognitiv tizim-(lotincha kognitio “idrok qilish, tasvirlash, vaziyatni tahlil qilish” so‘zidan) xarakter rivojlanishi, tarbiyasi, o‘rgatish, ta‘lim rivojlanishi natijasida ongda shakllangan bilish tizimi (shaxs). Kognitiv tizimning asosi - tafakkur, ong, xotira va tilning o‘zaro ta’siri. Bunday tizimni tashuvchisi (inson) miyasidir [1].

O‘quvchilar zamон bilan harakat qilishlari, qiziqarli va samarali o‘rganishni yaratishlari va o‘quvchilar qobiliyatlariga ishonchni singdirishlari kerak. Har bir dars “muвaffaqiyatli vaziyat” sifatida baholanishi va har bir o‘quvchi harakatlari natija berayotganini ko‘rishi kerak.

Ichki motivasiya asta-sekin rivojlanadi va o‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari va qat‘iyatliliklarini oshiradilar, ayniqsa ular har bir darsdan so‘ng o‘z malakalari va bilimlarida sezilarli yaxshilanishlarni ko‘radilar.

Mualif, o‘quvchilarni chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishning turli usullari orasida hali darsliklar va o‘qitish usullarida keng e’tirof etilmagan, ammo o‘quvchilarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan usullarni taklif etadi. Shunday usullardan biri ingliz, amerikaliklar kabi ingliz

tilida so‘zlashuvchi mamlakatlardan kelgan o‘quvchilar va tengdoshlar o‘rtasida aloqani o‘rnatish (bevosita yoki onlayin muloqat orqali). Ushbu usul ko‘plab maktab o‘quvchilariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularga nafaqat ona tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar madaniyati, tarixi va turmush tarzi haqida qiziqarli ma’lumotlar, balki ona tilida so‘zlashuvchilar bilan ingliz tilida muloqot qilish amaliyotini ham beradi, bu esa ularni mavzular va umuman tilni aniq o‘rganishga undaydi.

Motivasiyani oshirishda yana bir samarali usuli - bu ingliz tili darslarida musiqa va qo‘shiqlardan foydalanish. Bu amaliyot talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantiradi, grammatik tuzilmalarni mustahkamlaydi va o‘quvchilarda so‘z boyligini kengaytiradi, o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa sinfida ijobiy psixologik kayfiyatni yuzaga keltiradi, psixologik stressni kamaytiradi va til faolligini oshiradi [3].

Iloji boricha tabiiy sharoitga yaqin bo‘lgan o‘quv jarayonlarini tashkil etish ham o‘quvchilar motivasiyasini oshirishda muhim vositasidir. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari bunday vaziyatlarda ishtirok etishi ularda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, o‘rganish va rivojlanish istagini uyg’otadi. Misol uchun, o‘rganish maqsadida faqat gapirish bilan cheklanib qolmaydi, balki suhbatdoshni tushunishni ham o‘z ichiga oladi, bu esa darsni yanada qiziqarli qiladi.

Chet tilini o‘rganish jarayonida dialoglarni dramatizasiya qilish ham katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilar o‘zlari dialoglar tuzishlari yoki tayyor namunalarni bajarishlari mumkin, bu esa materialni yaxshiroq o‘rganishga yordam beradi.

Leksik va grammatik material bilan ishslash uchun ko‘pincha o‘yin texnikasi, qofiyalar, topishmoqlar va maqollar qo‘llaniladi. Juftlik va guruhli topshiriqlarni tashkil etish ham o‘quv jarayonini faollashtiradi, barcha o‘quvchilarni faol o‘quv faoliyatiga jalb qiladi.

Shu bilan birgan, o‘qitish tizimi qanchalik zamonaviy uslub va shakllari xilma-xilligi, shuningdek, darslarda ko‘rgazmali materiallardan foydalanishga qaramasdan, o‘quvchi chet tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki istagi bo‘lmasa, kerakli natijalarga erishish qiyin bo‘lib qolaveradi.

Shunday qilib, yuqoridagi ko‘rsatib utilganlarga asoslanib, quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtida faol xalqaro integrasiya va xalqaro munosabatlar rivojlanishi sharoitida ingliz tilini o‘rganish yangi ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat foydali, balki zaruriy yashash sharoitiga aylanmoqda. Biroq, umumta’lim o‘rta maktab o‘quvchilari ko‘pincha imtixonlarga tayyorgarlik ko‘rish va oliy o‘quv yurtlariga kirish kabi vazifalari bilan yuklanib qolganligi to‘fayli ham har doim ham ingliz tilini o‘rganish muhimligini tushunmaydilar va har doim ham uni o‘rganish jarayoniga jiddiy yondashishga tayyor emaslar.

Shu nutqti nazardan ingliz tilini o‘qitish sohasidagi o‘qituvchilar o‘quvchilar motivasiyasini oshirish bilan bog‘liq usul va vositalarni keng joriy etishdek vazifalarni xal etishlari lozim bo‘ladi. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘zidagi ichki motivasiyani saqlab qolish va o‘quvchilardagi mativasiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish kerak.. [4.].

Chet tilini o‘rganishga chinakam qiziqqan o‘quvchilar o‘qishga ko‘proq jalb qilinadi va yuqori o‘rganish motivasiyasini namoyish etadi. Shu sababli, umumta’lim o‘rta maktab o‘quvchilari chet tiliga o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalasi o‘qituvchilar uchun oliy vazifalardan biriga aylanmog‘i lozim.

REFERENCES

1. И. А. Джидарьян. О месте потребностей, эмоций, чувств в мотивации личности. //Теоретические проблемы психологии личности. / Под ред. Е. В. Шороховой. – М.: Наука, 2015. – 147 с.
2. И. А. Зимняя. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М: Просвещение, 2018. – 200 с.
3. И. А. Зимняя. Педагогическая психология. Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр. и перераб. - М.: Издательская корпорация «Логос», 2020. – 475 с.
4. N.A. Muslimov, Z.T.Raximov, A.A.Xo'jayev, A.N. Mamatqulov I.N. Karimov. “Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Intellekt nashriyoti, 2020. – 170 b.
5. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2010
6. Е.П. Ильин. Мотивы и мотивация - СПб: Питер, 2022. – 203 с.
7. Н. А. Шишкина. Построение модели обучения иностранному языку при многоуровневой системе профобразования в техническом вузе: Дис.... канд. пед. наук. -Ульяновск, 2004. -196 с.
8. A. X.Xujaqulov. Muhandislik ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy tanlovga ta’sir etuvchi omillar. Science and Education. 2023.- 493-496 с
9. A.X.Xujakulov. Значение инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования. Вестник науки. 2023.- 113-117 с
10. Xujaqulov Abdulaziz Xakim o‘g‘li. Muhandislik yo‘nalishi talabalaring umumkasbiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talablar. Prospects and main trends in modern science 2023.- 60-63 с
11. Muradov S. ЭCONOMIC ANALYSIS OF PROFITS IN THE FIELD OF LABOR PROTECTION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1239-1245.
12. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 109-115.
13. Muradov, S. (2024). MAIN INDICATORS OF LABOR PROTECTION MEASURES EFFICIENCY. Modern Science and Research, 3(2), 473–484. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30191>
14. Muradov S. ASSESSMENT OF THE CHEMICAL SITUATION IN AN ACCIDENT IN FACILITIES USING STRONG TOXIC SUBSTANCES (KTZM) //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 464-472.
15. Muradov S. CHEMICAL STATUS ASSESSMENT AND ANALYSIS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 455-463.
16. Muradov, S. (2024). STUDY AND ANALYSIS OF WORKING ACCIDENTS. Modern Science and Research, 3(2), 444–454. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30166>